

MUDDATLI BANK DEPOZITI SHARTNOMASI

№ _____

Toshkent sh.

2025 yil “ ____ ” _____

“Davr bank” Xususiy aksiyadorlik tijorat banki _____ filiali (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb nomlanadi) nomidan _____ yildagi _____ - sonli Ishonchnoma asosida harakat qiluvchi _____ bir tomondan va “_____” (keyingi o‘rinlarda “Depozitor” deb nomlanadi) nomidan _____ asosida faoliyat yurituvchi direktori _____, ikkinchi tomondan, birgalikda “Taraflar”, alohida esa “Taraf” deb yuritiluvchilar, ushbu shartnomani (keyingi o‘rinlarda «Shartnoma» deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Depozitor _____ (_____) so‘m miqdoridagi pul mablag‘larini (keyingi o‘rinlarda Depozit deb ataladi) Depozit Bankka kelib tushgan kundan boshlab 24 (yigirma to‘rt) oy muddatga depozitga joylashtiradi va Bank uni qabul qiladi.

1.2. Depozit summasiga Bank Depozitorga yiliga 365 kun hisobidan kelib chiqqan holda yillik 19% (o‘n to‘qqiz) foiz miqdorida foiz to‘laydi.

1.3. Depozitni qaytarish Bank tomonidan 1.1-bandda ko‘rsatilgan muddatning oxirgi kundan keyingi kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

1.4. Ushbu shartnoma davrida muddatli depozit hisobvarag‘iga qo‘shimcha badallar qabul qilinmaydi.

II. DEPOZIT SHARTLARI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. Depozit valyutasi: so‘m.

2.2. Depozit bo‘yicha yillik foiz stavkasi: ____%.

2.3. Depozit bo‘yicha hisoblangan foizlarni kapitalizatsiyasi: mavjud emas.

2.4. Depozit muddati: ____ oy.

2.5. Depozitga qo‘yiladigan mablag‘: _____ (so‘z bilan) so‘m.

2.6. Mablag‘larni depozitga joylashtirish Depozitor tomonidan bankdagi o‘z hisobvaraqlaridan Bankning depozit hisobvarag‘iga naqd pulsiz o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi (Hisobraqam: 29801 000 3 00000981 776, MFO: 00981.)

2.7. Bank Depozitorga uning pul mablag‘lari depozitga qabul qilinganligi to‘g‘risida yozma shaklda yoki masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimlari orqali elektron tarzda tasdiqlab beradi.

2.8. Depozitni qaytarish va/yoki hisoblangan foizlarni to‘lash ushbu Shartnomaning 11-bo‘limida ko‘rsatilgan Depozitorning bank hisob raqamiga naqd pulsiz o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

2.9. Depozitdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan foizlarni hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 764-moddasi va “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to‘g‘risida”gi (A.V. 3460-son 23.08.2023-y.) Nizomga asosan amalga oshiriladi.

2.10. Depozitorning hisobvaraqlaridagi pul mablag‘lariga taqiq qo‘yilganda yoki O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Depozitorning hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatilganda, cheklovlar olib tashlangunga qadar depozit bo‘yicha foizlarni hisoblash to‘xtatib turiladi.

2.11. Ushbu shartnoma bo‘yicha foizlarni hisoblashda bir yildagi kunlar soni 365 kun deb qabul qilinadi, o‘yning davomiyligi - bir oydagi kunlarning kalendar soni.

2.12. Foizlar Bank tomonidan har oyda, keyingi o‘yning ikkinchi ish kunidan kechiktirilmagan holda to‘lab beriladi.

2.13. Depozitorning depozit bo'yicha daromadlaridan soliqlarni to'lash amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.14. Depozitor depozitni (depozitning bir qismini) muddatidan oldin talab qilib olishga va ushbu Shartnomani bekor qilishga haqli bo'lib, bu haqda depozit olinishi kutilayotgan sanadan kamida 30 (o'ttiz) kun oldin Bankni xabardor qiladi. Bunda Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish yoki depozitdan qisman yechib olish Depozitorning yozma arizasi bilan rasmiylashtiriladi.

2.15. Depozit (depozitning bir qismi) muddatidan oldin qaytarib olingan taqdirda foizlar quyidagi tartibda to'lanadi:

- 30 kun ichida muddatidan oldin qaytarib olish - foizlar to'lanmaydi;
- ___-___ kun ichida muddatidan oldin qaytarib olish - yillik ___ () foiz;
- ___-___ kun ichida muddatidan oldin qaytarib olish - yillik ___ () foiz;
- ___-___ kun ichida muddatidan oldin qaytarib olish - yillik ___ () foiz;
- ___-___ kun ichida muddatidan oldin qaytarib olish - yillik ___ () foiz;
- ___-___ kun ichida muddatidan oldin qaytarib olish - yillik ___ () foiz;

Bunda depozit uchun avval ortiqcha to'lab berilgan foizlar qayta hisob-kitob qilinib, asosiy depozit summasidan ushlab qolinadi.

Agar depozit muddati tugash kuni ish kuni bo'lmagan kunga to'g'ri kelsa, undan keyingi ish kuni depozit muddati tugash kuni hisoblanadi.

2.16. Bank tomonidan qabul qilingan depozit mablag'lari O'zbekiston Respublikasining № O'RQ-1031 18.02.2025 yildagi "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 25 va 26 moddalarida ko'rsatilgan shartlar asosida 200 000 000 (ikki yuz million) so'mgacha Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan kafolatlanadi.

2.17. Kafolatlangan Depozit bo'yicha kompensatsiya summasi O'zbekiston Respublikasining "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida belgilangan tartibda to'lab beriladi.

2.18. Bank depozit bo'yicha pul mablag'lari bankka kelib tushgan kundan boshlab bir yil o'tgach, bu haqda Depozitorni 3 (uch) bank kunidan kechiktirmay yozma ravishda xabardor qilgan holda depozit summasini muddatidan oldin qaytarib berishga haqli. Bunda depozitlar bo'yicha foizlar depozitning bankda amalda muomalada bo'lgan davri uchun to'lanadi.

III. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Depozitorning huquqlari:

3.1.1. Depozit shartnomasi yuzasidan barcha zarur ma'lumotlarni olish.

3.1.2. mazkur Shartnoma shartlari asosida va tartibda muddatli depozit shartnomasini tuzish.

3.1.3. Pul mablag'larini depozit hisovarag'iga qo'yish.

3.1.4. depozitni (depozitning bir qismini) muddatidan oldin talab qilib olish.

3.1.5. Bankning Internetdagi rasmiy veb-sayti (www.davrbank.uz) da Depozitlar va Tariflar to'g'risidagi axborot bilan muntazam tanishib borish.

3.2. Depozitorning majburiyatlari:

3.2.1. Mazkur shartnoma shartlariga rioya qilish.

3.2.2. Bankka ishonchli va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish.

3.2.3. hisobvarag'lar bo'yicha operatsiyalarni qat'iy ravishda ushbu Shartnomaga, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, O'zbekiston Respublikasi va boshqa vakolatli organlarning normativ hujjatlariga muvofiq amalga oshirish.

3.2.4. Depozit bo'yicha hisobraqamlarni ochish va operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bankka O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu shartnomada nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etish.

3.2.5. Depozitga ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan miqdorda pul mablag'larini 5 (besh) ish kuni ichida Bankka o'tkazish.

3.2.6. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Shartnomada ko‘zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

3.3. Bankning huquqlari:

3.3.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Depozitordan barcha zarur ma‘lumotlarni olish.

3.3.2. Bank yangiliklari, shuningdek, Depozitorning muddatli depozit hisobvarag‘i bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni SMS ko‘rinishida Ariza/So‘rovda ko‘rsatib o‘tilgan Depozitor mobil raqamiga yoki pochta xabari sifatida elektron manzilga yuborish.

3.3.3. qonunchilikka muvofiq tegishli davlat organlarining ijrosi ta‘minlanishi majburiy bo‘lgan hujjatlari kelib tushgan taqdirda Depozitorning e‘tirozlariga qaramay, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda choralarni ko‘rish, ya‘ni pul mablag‘larini bloklash, xatlash, pul mablag‘larini aktspetsiz tartibda Depozitor hisobvarag‘idan chiqarish, hisobvarag‘ bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatish va h.o, shu jumladan Depozitorning hisobvarag‘lari bo‘yicha pul mablag‘lari xatolik bilan qabul (kirim) qilingan holatlari aniqlanganida, qaytarish uchun muddatli depozit hisobvarag‘i bo‘yicha hisoblangan va to‘langan mukofotlarni aktseptsiz tartibda yechib olish.

3.4. Bankning majburiyatlari:

3.4.1. Depozitor nomiga depozit hisob raqami ochish.

3.4.2. Depozitorga ushbu shartnomada belgilangan tartibda va shartlarda depozit bo‘yicha foizlarni hisoblash va to‘lash.

3.4.3. Depozit summasini, shuningdek hisoblangan foizlar summasini pul mablag‘larining bankda amalda mavjud bo‘lish muddati tugagandan so‘ng Depozitorga qaytarish.

3.4.4. Depozitning maxfiyligini va unga ishonib topshirilgan pul mablag‘larining saqlanishini ta‘minlash.

3.4.5. Mazkur shartnoma tuzilgan kunga belgilangan Depozit bo‘yicha to‘lanadigan foizlar miqdorini bir tomonlama o‘zgartirmaslik.

3.4.6. Depozit sirini saqlash va u bo‘yicha ma‘lumotlarni faqat qonunchilikda ko‘zda tutilgan hollardagina taqdim etish.

3.4.7. Bank tomonidan kreditlar/mikroqarzl/lizing bo‘yicha qarzdorliklarni so‘ndirish uchun Depozitdagi pul mablag‘lari Depozitorning topshirig‘isiz hisobdan chiqarilganda, bu haqda keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Depozitorga u tomonidan belgilangan aloqa kanali orqali xabarnoma yuborish.

3.4.8. Bank tomonidan Depozitorning Depozit bo‘yicha bank amaliyoti to‘xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda hisobvara q yoki omonat egasiga uning hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatish to‘xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma (ma‘lumotnoma) yuborish

IV. MAXFIYLIK

4.1. Bank O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri” to‘g‘risidagi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi Depozitor to‘g‘risidagi ma‘lumotlar maxfiyligini va sir saqlanishini kafolatlaydi.

4.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni Bank Depozitorga yoki uning vakolatli vakiliga uning (yozma ravishda yoki elektron ko‘rinishda taqdim etilgan va Depozitor ma‘lumotlarini to‘liq identifikatsiyalashtirganidan so‘ng) so‘roviga muvofiq taqdim etishi mumkin.

4.3. Bank sirini tashkil etuvchi Depozitor to‘g‘risidagi ma‘lumotlar uchinchi shaxslarga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

V. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Bank tomonidan depozitning qaytarilishini ta‘minlash majburiyati bajarilmagan yoki depozit bo‘yicha foizlar to‘lash muddati kechiktirilgan taqdirda, Bank Depozitorga muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun qaytarilmagan depozit/foizlar bo‘yicha kechiktirilgan to‘lov summasining 0,01 (nol butun yuzdan bir) foizi miqdorida peyna to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi qaytarilmagan depozit/foizlar bo‘yicha kechiktirilgan to‘lov summasining 10 (o‘n) foizidan oshmasligi kerak.

5.2. Penya to‘lash shartnoma majburiyatlarini buzgan taraflarni ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan va to‘lovni kechiktirish natijasida boshqa Tarafga yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

VI. FORS-MAJOR HOLATLAR

6.1. Taraflar ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bu bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan, Taraf oldindan ko‘ra olmagan yoki oqilona choralar bilan oldini ololmagan favqulodda hodisalar (fors-major) natijasida yuzaga kelgan yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari oqibati bo‘lsa.

6.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganda va to‘xtaganda, ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish imkoniyati bo‘lmagan Taraf bunday holatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab 3 (uch) kun ichida boshqa Tarafni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

6.3. Fors-major holatlarining yuzaga kelishi Shartnomani bajarish muddatining bunday holatlar amal qiladigan davrga uzayishiga olib keladi.

VII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

7.1. Ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Taraflar, har qanday noqonuniy ustunlik yoki boshqa imtiyozlarni olish maqsadida, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari ushbu shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta‘sir qilish uchun, har qanday shaxslarga haq to‘lamaydilar, to‘lashni taklif qilmaydilar va hech qanday pul mablag‘lari yoki qimmatbaho buyumlarni to‘lashga yo‘l qo‘ymaydilar.

7.2. Ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari, amaldagi qonunchilikka muvofiq pora berish/olish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni sodir etmaydilar.

7.3. Ushbu Shartnomaning Taraflardan har biri boshqa Tarafning xodimlarini biron-bir tarzda rag‘batlantirishdan bosh tortadi, shu jumladan ularga pul summalari, sovg‘alar, ularning nomiga ishlarni (xizmatlarni) beg‘araz ravishda bajarish va boshqa usullar bilan, xodimni ma‘lum qaramlikka qo‘yib qo‘yadigan va ushbu xodim tomonidan uni rag‘batlantiruvchi tomonning foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishga yo‘naltirilgan rag‘batlantirishdan bosh tortadi.

7.4. Agar biron-bir Taraf korrupsiyaga qarshi biror shart buzilgan yoki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan gumon yuzaga kelgan taqdirda, tegishli Tarafni yozma shaklda yoki og‘zaki ravishda ishonch telefonlari orqali boshqa Tarafga xabar beradi.

7.5. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so‘ng, shartnoma bilan bog‘liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

VIII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

8.1. Ushbu Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolar va kelishmovchiliklar, iloji bo‘lsa, o‘zaro muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi.

8.2. Sudgacha bo‘lgan nizolarni hal etish Taraflar o‘rtasida talabnoma yuborish amalga oshiriladi.

8.3. Kelishmovchiliklar va nizolarni o‘zaro muzokaralar yo‘li bilan hal etish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, taraflar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudida hal etiladi.

IX. SHARTNOMANING KUCHGA KIRISHI, O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH VA SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI

9.1 Ushbu shartnoma ushbu Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan dastlabki depozit summasi bankka kelib tushgan kundan boshlab kuchga kiradi va Depozitorga Depozit summasi hamda unga hisoblangan foizlar to'liq qaytarilgunga qadar amal qiladi.

9.2. Taraflarning kelishuviga ko'ra ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar kiritilishi yoki u muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

9.3. Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar, muddatidan oldin bekor qilinishi yoki uning muddati uzaytirilishi yozma shaklda rasmiylashtirilgan va Taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda yuridik kuchga ega bo'ladi.

9.4. Ushbu shartnomani bir tomonlama o'zgartirish va bekor qilishga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi.

X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Depozitorning pul mablag'lari bilan operatsiyalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

10.2. Taraflar ushbu Shartnoma doirasida maxfiylikni saqlash va o'zaro kelishuvsiz maxfiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar, bunday oshkor qilish majburiyati O'zbekiston Respublikasining qonuniy talablari yoki to'laqonli sud qarori bilan belgilangan holatlar bundan mustasno.

10.3. Ushbu Shartnoma bilan tartibga solinmagan masalalar tegishli masalalar yuzaga kelgan paytda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

10.4. Ushbu Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada, Taraflarning har biri uchun bittadan tuzildi.

XI. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

“BANK”

“DEPOZITOR”

“Davrbank” XATB ____ filiali

Toshkent shahri, A.Navoiy-Zarqaynar

ko'chasi, A blok

r/s 29801 000 3 00000981 776

MFO 00981,

STIR 203.709.707

Aloqa uchun raqam: 1284

Boshqaruvchi

Direktor

M.O'.

M.O'.